



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ QILISH

Dadebayeva Nasiba

*Osiyo Xalqaro Universiteti Xorazm filiali Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich
101- guruh magistranti*

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritib beriladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, ta'lim sifati, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni, texnologik yondashuv, samaradorlik, natija.

ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ

АННОТАЦИЯ: В статье анализируются вопросы повышения качества образования на основе внедрения педагогических технологий и инновационных подходов в образовательный процесс. Особое внимание уделяется эффективности использования интерактивных методов обучения и их влиянию на развитие познавательной активности обучающихся. Раскрывается значение современных педагогических технологий в обеспечении качества образования.



Ключевые слова: педагогическая технология, инновационный подход, качество образования, интерактивные методы, образовательный процесс, эффективность, результат.

APPLYING INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

ABSTRACT: *The article examines the issues of improving the quality of education through the implementation of pedagogical technologies and innovative approaches in the educational process. Special attention is given to the effectiveness of interactive teaching methods and their role in enhancing learners' cognitive activity. The significance and practical value of modern pedagogical technologies in ensuring educational quality are substantiated.*

Key words: *pedagogical technology, innovative approach, quality of education, interactive methods, educational process, effectiveness, outcome.*

KIRISH

Davlatimiz rahbarining har bir viloyatga tashrifi doirasida o'tkazilgan yig'ilishlari va turli uchrashuvlarida yoshlar tarbiyasi, ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari doimiy ravishda kun tartibidagi dolzarb masala sifatida ko'tarilib kelinmoqda. Prezidentimiz ta'kidlashicha: "Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, ularning har bir harakatini, kayfiyatini kuzatib bormasak, ilm va hunarga o'rgatmasak, munosib ish bilan ta'minlamasak, bu omonatni yo'qotishimiz ehtimoldan holi emas". Shu maqsadda, 2020-yil 6-noyabrda imzolangan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-sonli Farmonda mamlakatning intellektual va ma'naviy salohiyati yuqori bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ularni zamonaviy kasb va bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu vazifa harbiy ta'lim muassasalarida ham ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, bunda o'qitish jarayonida



pedagogik usullardan oqilona va samarali foydalanish, ularni takomillashtirish, yangi metodlarni joriy etish orqali mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish talab etiladi.

ASOSIY QISM

Pedagogik texnologiya — bu pedagogik nazariya va amaliyotda shaxsning shaxsiyati va ijtimoiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni qo'llaydigan ta'lim jarayonidir. U tarbiyaviy jarayonni, o'rgatuvchi hamda didaktik texnologiyalarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish maqsadida yangi turdagi o'quv reja, o'quv dasturi va ta'lim standartlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, ularni to'liq amalga oshirish uchun ta'lim mazmuniga zamonaviy pedagogik tajribalar va texnologiyalarni joriy etish, buning uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

Hozirda keng qo'llanilayotgan an'anaviy ta'lim usullarining ham o'z yutuq va kamchiliklari mavjud. Masalan, ma'ruza, hikoya, suhbat kabi usullarda ofitser-o'qituvchi beradigan fikrlar ko'pincha kursantga bir yoqlama singdiriladi. Bunday vaziyatda o'qituvchi va kursant o'rtasidagi samarali qayta aloqa yetarli darajada shakllanmaydi. Agar ofitser-o'qituvchi mahoratli bo'lsa va so'zlashuv madaniyatiga ega bo'lsa, fikrlarini aniq, sodda va tushunarli bayon eta olsa, bu usul orqali ham maqsadga erishish mumkin. Biroq, bunday qobiliyatga barcha pedagoglar ega bo'lmaydi. Shu sababli, muvaffaqiyatning asosiy garovi — kursantlarning ta'lim jarayoniga faol jalb qilinishi hisoblanadi. Pedagogikada mashg'ulotlarni samarali tashkil etish va optimallashtirish doimiy tadqiqot mavzusidir. Mashg'ulotlarga aniqlik, tartiblilik, ravonlik va vazminlik xususiyatlarini berish orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirishga intilish tarixan mavjud. Masalan, Amos Komenskiy o'quv jarayonini “vaqt, predmetlar va usullar”ni mohirona taqsimlash orqali mukammal modelini yaratishga harakat qilgan. Uning fikricha, “hamma narsa, to'g'ri vazminlikdagi toshlar bilan qurilgan soat yoki avtomat kabi, mukammal va yoqimli bo'lib, oxir-oqibat aniq natijaga olib keladi”.

Zamonaviy pedagogikada ham shunday modellarning ishlanayotgani kuzatiladi. Ular ta'lim jarayonini ishlab chiqarish texnologiyasidagi kabi ma'lum



sharoit va belgilangan vaqt ichida maqsadga erishishni kafolatlaydigan tizim sifatida tashkil etadi.

O'qitishga texnologik yondashuv — bu o'quv jarayonini ishlab chiqarish jarayoni kabi texnologik va takrorlanuvchi xususiyatga ega qilish bo'yicha ilg'or tajribadir. Dastlabki izlanishlar XX asrning 60-yillari boshlarida amerikalik olimlar tomonidan olib borilgan. Shu davrda “pedagogik texnologiya” atamasi birinchi marta amerikalik pedagog B.F. Skinner tomonidan ishlatilgan. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bu iboraning ta'lim tizimida paydo bo'lishiga bir qator ilmiy va amaliy ehtiyojlar sabab bo'lgan.

Didaktikaning ba'zi prinsiplari barcha mamlakatlarda, xususan, AQShda to'liq tan olinmagan, uning qoidalari esa ba'zida o'ta konstruktiv xarakterga ega bo'lmay, zamon talabidan orqada qolgan. Shu bilan birga, XX asrning 60-yillarida ta'lim jarayoniga texnika, dasturlangan o'quv mashinalari va boshqa texnologik vositalarning joriy etilishi pedagogik jarayonga yangi yondashuvlarni olib kirdi. Shunday qilib, pedagogik texnologiyalar oqimi dastlab AQShda shakllangan bo'lib, XX asrning 70–80-yillarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llana boshlandi va YuNESKO tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi.

Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasining asosiy maqsadi — ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning berilgan sharoit va ajratilgan vaqt ichida rejalashtirilgan o'quv natijalariga erishishini to'liq boshqarish orqali ta'minlashdir. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini tizimlashtirish, uni aniq rasmiylashtirilgan elementlarga ajratish va maksimal samaradorlikka erishishga qaratilgan.

Pedagogik texnologiyalarning predmeti quyidagilardan iborat: ta'lim tizimining konseptual asoslarini aniqlash, maqsadlarni belgilash, o'quv natijalarini shakllantirish, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirish, ta'lim modelini tanlash va uni amalga oshirish, shuningdek, samaradorlik va optimallik darajasini baholash. Dastlab, pedagogik texnologiyaning mohiyati an'anaviy og'zaki o'qitish usulidan voz kechib, test asosida kompyuter yordamida o'qitish va kursantlarni



mustaqil o'rganishga rag'batlantirishdan iborat bo'lgan. Bugungi kunda bu tushuncha yanada kengayib, ta'limning har tomonlama tizimli jarayoni sifatida qabul qilinmoqda.

Hozirgi pedagogik fan va amaliyotda "pedagogik texnologiya", "ta'lim texnologiyasi" va "o'qitish texnologiyasi" atamaları keng qo'llaniladi. Ularning umumiy jihatlari mavjud bo'lsa-da, ma'nolari va qo'llanish konteksti bo'yicha farqlar ham mavjud. Xususan, pedagogik texnologiya — o'quv jarayonini butunligicha texnologiyalashtirishni belgilovchi tizimli kategoriya. Boshqa tushunchalarni belgilash uchun sinonim sifatida ta'lim texnologiyasi va o'qitish texnologiyasi ishlatiladi. O'qitish texnologiyasi, bir tomondan, pedagogik texnologiyaning jarayoniy harakat aspektini ifodalaydi. Bu — ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishish va muayyan ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan usul va vositalar tizimi, ya'ni ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayonidir. Ikkinchidan, u pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonalik aspektini ham anglatadi, ya'ni belgilangan maqsadga erishish uchun pedagogik va o'quv faoliyati loyihasini bajarishni ifodalaydi.

O'qitishning predmetli metodikasidan farqli ravishda texnologiya quyidagicha loyihalashtiriladi:

- muayyan sharoitlardan kelib chiqib, belgilangan natijalarga erishishga yo'naltirilgan, oldindan o'ylab qo'yilgan aniq pedagogik faoliyatga qaratiladi
- o'zining natijaviyligi, natijalarining qayta tiklanishi, "agarda" so'zini ko'pchilik hollarda ishlatilmasligi bilan farqlanadi, agarda talantli o'qituvchi va talantli ta'lim oluvchi, o'qitish vositalari, jumladan, axborot texnologiyalari va shu kabilar yetarli miqdorda mavjud bo'lsa;
- muqobil ko'rinishlarning bo'lishi mumkin emas, uning asosiy vazifasi rejalashtirilgan natijaga erishishni kafolatlash;



- mashg'ulotni ta'lim beruvchilar uchun metodik ishlab chiqishdan farqli ravishda ta'lim oluvchilarga va ularning shaxsiy faoliyati hisobiga o'qishda yutuqlarga erishishlarini taminlashga yo'naltirilganligi;

- texnologiyada ortiqcha hech narsa bo'lmasligi shart: o'zlashtirish yo'llarini, usullarini va vositalarini almashtirish, bu – texnologiyaning yo'qligi belgisi.

Demak, o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri interfaol mashg'ulotlar bo'lib, bugungi kunda harbiy ta'lim muassasalaridagi ilg'or ofitsero'qituvchilarimiz ulardan keng ko'lamda foydalanish bilan bir qatorda uning yangidan-yangi turlarini izlab topmoqdalar hamda ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etmoqdalar.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kursantlarni o'qitish, tarbiyalash – mashaqqatli ish hisoblanadi. Bunda O'qituvchining eng mashaqqatli ishlaridan biri shuki, u har bir o'quvchining shaxsiy (indivudul) xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarda barcha kursantlarning faolligiga erishishdan iborat. Bu o'rinda kursantlarning faolligi o'z-o'zidan oshmasligini, balki bu ongli munosabat natijasi ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur. Modomiki, faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, u ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, tashkil etish shakli, amalga oshirish metodlari va vositalarini o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi tarqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni.
2. Azizxo'jaeva, N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2003. – 174 b.
3. Ishmuxamedov, R.J., Rayimov, Sh.K. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma: - T.: TOUQBYu, 2013. - 54 b.



4. Ishmuhamedov, R.J., Yuldashev, M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma). - T.: 2017. - 372 b.